

AHOLIGA YUK TASHISH XIZMATINI KO'RSATISH STRATEGIYASI

Ergasheva Muxabbat Abdusamatovna

Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining doktoranti

Nuritdinov Jaloliddin Djamolovich

“Toshshaxartransekspeditsiya” MCHJ rahbari

Annotatsiya

Maqolada O‘zbekiston Respublikasida avtomobil transporti orqali aholiga yuk tashish xizmatini ko‘rsatish strategiyasi, uning tarkibiy qismlari va rivojlantirish yo‘nalishlari ilmiy asosda tahlil etiladi. Mamlakatda yuk tashish hajmini oshirish, infratuzilmani modernizatsiya qilish, raqamlashtirish hamda ekologik transport vositalaridan foydalanish muhim vazifa sifatida belgilangan. Statistik ma’lumotlar va mahalliy transport korxonalari faoliyati misolida sohadagi mavjud muammolar, tendensiyalar va strategik takliflar ishlab chiqilgan. Tadqiqot natijalari yuk tashish tizimini optimallashtirish orqali iqtisodiy samaradorlikni oshirish imkoniyatlarini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: O‘zbekiston–2030, transport, yuk tashish, infratuzilma, ekologiya, yashil transport.

Аннотация

В статье научно обоснованно анализируется стратегия предоставления услуг по перевозке грузов автомобильным транспортом для населения в Республике Узбекистан, её составные части и направления развития. Определены важнейшие задачи по увеличению объёмов грузоперевозок, модернизации инфраструктуры, цифровизации и использованию экологически чистого транспорта. На основе статистических данных и примера деятельности местного транспортного предприятия выявлены существующие проблемы, тенденции и разработаны стратегические предложения. Результаты исследования показывают возможности повышения экономической эффективности за счёт оптимизации системы грузоперевозок.

Ключевые слова: Узбекистан – 2030, транспорт, грузоперевозки, инфраструктура, экология, зелёный транспорт.

Abstract

The article provides a scientific analysis of the strategy for providing freight transportation services to the population by road transport in the Republic of Uzbekistan, its structural components, and development directions. Key tasks such as increasing the volume of freight transportation, modernizing infrastructure, digitalization, and the use of environmentally friendly transport are identified. Based on statistical data and the example of a local transport company, existing problems, trends, and strategic proposals are developed. The research results demonstrate the opportunities for enhancing economic efficiency through the optimization of the freight transportation system.

Keywords: Uzbekistan – 2030, transport, freight transportation, infrastructure, ecology, green transport.

KIRISH

Mamlakatlarning iqtisodiy rivojlanishiga mos ravishda yo‘lovchi va yuk tashish hajmi ham barqaror va kuchli rivojlanib boradi. Mavjud transport infratuzilmasidan foydalanuvchilar sonining ortib borishi hamda avtomobil, temir yo‘l va logistika tarmoqlarini ta‘mirlash va kengaytirish uchun barqaror strategik rejalar mavjud bo‘lishi talab etiladi.

O‘zbekiston–2030 strategiyasining 53-bandida O‘zbekiston Respublikasining global transport-logistika tarmoqlariga integratsiyasini chuqurlashtirish va milliy transport tizimining salohiyatini oshirish vazifasi belgilangan bo‘lib, unda yo‘lovchi va yuk tashish xizmatlari hajmini 3 barobar oshirish nazarda tutilgan [1]. Ushbu vazifani amalga oshirishda aholiga transport xizmatlarini ko‘rsatish va raqobatbardoshlik darajasini oshirish muhim ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Avtomobil transporti yuk tashishda muhim ahamiyatga ega. Bu, avvalo, uning bir qator ustunliklari bilan bog‘liq bo‘lib, ular orasida global miqyosda foydalanish imkoniyati, “eshikdan eshikkacha” tashish, yuqori darajadagi moslashuvchanlik va dinamiklik, shuningdek, turli yo‘nalishlar hamda yetkazib berish sxemalarini oson tashkil etish imkoniyati mavjudligi alohida o‘rin tutadi. Zamonaviy avtomobil transporti yuk tashishda yuqori xavfsizlik darajasi, tezkor xizmat ko‘rsatish va tashqi sharoitlar o‘zgarishiga moslashuvchan tarzda javob qaytarish imkonini beradi. Bundan tashqari, avtomobil transporti infratuzilmasi raqamli texnologiyalarning joriy etilishi orqali yanada moslashuvchan bo‘lib bormoqda.

R. Engströmning fikricha, avtomobil transporti zamonaviy jamiyatning ajralmas bo‘g‘inidir va bu tizimsiz zamonaviy iqtisodiyotni tasavvur qilish mushkul [2]. A.A. Ievleva esa avtomobil transporti jamiyat hayotining deyarli barcha sohalariga xizmat qilishi sababli uni tovarlarni samarali yetkazib berish zanjiridagi muhim halqa sifatida baholaydi [3].

R.S. Nikolaev o‘zining “Rossiya avtomobil transportida yuk tashishning zamonaviy tendensiyalarini rivojlantirish” nomli ilmiy maqolasida yuk tashish masofalari va ushbu sohaning hududlardagi yuk aylanmasidagi ulushi bo‘yicha muhim tahliliy ma‘lumotlarni taqdim etgan [3].

A.E. Yusupov esa avtomobil transporti orqali yuk tashishni tashkil etishda zamonaviy va kam xarajatli transport vositalaridan foydalanishni, shuningdek, yo‘nalishlarni tahlil qilish va transport vositalarini tanlash usullarini joriy etishni taklif qilgan [5].

Yuqoridagi adabiyotlar asosida avtomobil transportining yuk tashish tizimidagi strategik ahamiyati yaqqol ko‘zga tashlanadi. Ushbu transport turi yuqori darajadagi moslashuvchanlik, tezkor xizmat ko‘rsatish, xavfsizlik va raqamli texnologiyalarni integratsiyalash imkoniyati bilan ajralib turadi. Ilmiy manbalar avtomobil transporti nafaqat iqtisodiy tizim, balki kengroq ijtimoiy muhitda ham ajralmas tizim sifatida qaralayotganini tasdiqlaydi. Avtotransport infratuzilmasining raqobatbardoshligini oshirish uchun zamonaviy texnologiyalar asosida yo‘nalishlarni rejalashtirish,

vositalarni tanlash va xarajatlarni optimallashtirish dolzarb vazifa sifatida taqdim etilmoqda.

METODOLOGIYA

Tadqiqotda statistik manbalarni tahlil qilish, o‘rganish, analitik muhokama kabi nazariy usullar, mantiqiy fikrlash, tizimli yondashuv, kuzatuv va qiyosiy tahlil usullaridan foydalanilgan holda amalga oshirilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

O‘zbekiston Respublikasi Transport vazirligi tomonidan mamlakatdagi transport tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish strategiyasi ishlab chiqilib, uning asosiy maqsadi sifatida integrallashgan yagona transport tizimini shakllantirish, aholi va tashkilotlarning transport xizmatlariga bo‘lgan ehtiyojini qondirish hamda transport infratuzilmasidan samarali foydalanish imkoniyatini yaratish belgilab olingan [6]. Ushbu strategiya O‘zbekiston Respublikasi transport tizimining yettita asosiy ustuvor yo‘nalishini qamrab oladi:

- Yagona transport siyosatini shakllantirish va amalga oshirishda institutlar samaradorligini oshirish;
- Muvofiqlashtirilgan tarif siyosatini amalga oshirish;
- Aholi va biznesga ko‘rsatilayotgan transport xizmatlarining sifatini oshirish, ularning qulayligi va tezkorligini ta‘minlash;
- O‘zbekiston Respublikasi transport tizimini xalqaro transport makoniga integratsiyalash va transport salohiyatidan to‘liq foydalanish;
- Transport tizimiga innovatsiyalarni joriy qilish, raqamlashtirish darajasini oshirish va shu asosda intellektual transport tizimini yaratish;
- Transport va yuk tashuvi xavfsizligini ta‘minlovchi tizimni takomillashtirish;
- Transportning ekologik talablarga muvofiqligini ta‘minlash, “yashil” transportni rivojlantirishga sharoit yaratish.

Yuqorida qayd etilgan vazifalarni amalga oshirishda logistika, transport boshqaruvi va mijozlarga xizmat ko‘rsatish sohalarini o‘z ichiga olgan muhim jarayonlarni to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish talab etiladi. Aholiga yuk tashuvi xizmatini ko‘rsatish strategiyasining asosiy tarkibiy qismlari ilmiy jihatdan 1-jadvalda keltirilgan yo‘nalishlarni qamrab olishi lozim (1-jadval).

Jahon mamlakatlarida yuk tashish bozori texnologik va ekologik innovatsiyalar, infratuzilmani rivojlantirish hamda geosiyosiy o‘zgarishlar ta‘sirida shakllanib bormoqda. Yangi sharoitlarga moslasha oladigan va zamonaviy texnologiyalardan foydalanishga tayyor kompaniyalar bozorda yetakchi o‘rinlarni egallash imkoniyatiga ega. Ushbu tendensiyalar yakuniy iste‘molchilar uchun yuk tashishning mavjudligi va narxiga qanday ta‘sir qilishi yuqorida qayd etilgan vazifalar va xizmatlarni to‘g‘ri tashkil etish bosqichlariga bevosita bog‘liq.

O‘zbekiston Respublikasida yuk tashish xizmatlari transport turlari bo‘yicha har yili ortib borayotgani, albatta, quvonarli holatdir. Biroq ushbu xizmatlarni tashkil etish xarajatlarining ham oshib borayotgani sohada amalga oshirilishi lozim bo‘lgan bir qator dolzarb vazifalar mavjudligini ko‘rsatadi. Sohada yaratilayotgan innovatsion

g'oyalarning amaliyotga joriy etilish jadalligi, mavjud xizmatlar sifati bilan farqlari hamda boshqa shunga o'xshash muammolar yuzaga kelmoqda.

1-jadval

Aholiga yuk tashuvi xizmatini ko'rsatish strategiyasining asosiy tarkibiy qismlari¹

№	Tarkibiy qismlar	Asosiy vazifalar
1.	Bozor tahlili	Mahalliy hududda yuk tashishga bo'lgan talabni aniqlash. Raqobatchilarni o'rganish (ularning xizmat turlari, tariflari, xizmat sifati). Mijozlarning ehtiyojlarini va afzalliklarini aniqlash
2.	Xizmat turlarini belgilash	Mahalliy yuk tashish: bir shaharda yoki tumanda yuk yetkazib berish Shaharlararo tashish: viloyatlar yoki shaharlardan boshqa joylarga yuk yetkazish. Xalqaro tashish: chet elga yuk yuborish (agar rejalashtirilsa). Ko'chirish (relokatsiya) xizmati: uy jihozlari, ofis uskunalari va boshqalarni ko'chirish
3.	Transport vositalarini tanlash	Yuk avtomobillari (Gazel, Isuzu, MAN, Mercedes-Benz Sprinter va boshqalar) Yuk xajmi va turiga qarab avtomobil turlari (tentli, izotermik, refrejeratorli). Avtomobillarni ijaraga olish yoki sotib olish
4.	Hujjatlar va ruxsatnomalar	Yuridik shaxs sifatida ro'yxatdan o'tish (masalan, MCHJ). Litsenziyalar va ruxsatnomalarni olish (yuk tashish faoliyatiga oid). Haydovchilarning tegishli toifali guvohnomalari va tibbiy ko'rikdan o'tgan bo'lishi
5.	Xodimlarni yollash	Malakali haydovchilar. Logist/operatorlar (buyurtmalarni qabul qilish va yo'nalish tuzish) Texnik xizmat ko'rsatish xodimlari (agar o'z transport bo'lsa)
6.	Narx siyosatini ishlab chiqish	Xizmat narxini masofa, yuk xajmi, yuk turi va xizmat turi bo'yicha belgilash Qo'shimcha xizmatlar (lift xizmati, qadoqlash, yuk ko'taruvchilar) uchun narxlar
7.	Logistika tizimi va IT	Buyurtmalarni qabul qilish va kuzatib borish uchun dastur yoki sayt yaratish. Mobil ilova yoki telefon raqami orqali tezkor aloqa
8.	Marketing va mijozlarni jalb qilish	Reklama: ijtimoiy tarmoqlar, Google yoki Yandex xaritalari, bannerlar, risolalar. Mijozlar uchun chegirmalar, moyillik dasturlari. Hamkorliklar (migratsion xizmatlar, mebel do'konlari, ofislar bilan)
9.	Xavfsizlik va sug'urta	Yukni sug'urtalash (zarurat bo'lsa) Yuk tashish vaqtida xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha choralar

2-jadval ma'lumotlariga ko'ra, avtomobil transporti orqali yuk tashish hajmi ortib bormoqda. 2024-yilda eng ko'p yuk tashilgan hududlar kesimida Navoiy viloyatida 387,4 mln tonna, Toshkent viloyatida 264,2 mln tonna, Toshkent shahrida esa 138,5

¹ Muallif ishlanmasi

mln tonna yuk tashilgani qayd etilgan. Hududlar bo'yicha eng kam yuk tashish xizmati amalga oshirilgan viloyat sifatida Sirdaryo viloyati tilga olingan. Tashilgan yuklar hajmining ko'rsatkichlari hududlarning sanoat va xizmat ko'rsatish sohalari qanchalik rivojlangani haqida ham muhim dalolat beradi. Ushbu hududlarda ham avtomobil transporti orqali yuk tashish tizimini takomillashtirish va uning samaradorligini oshirish uchun maxsus yuk tashish strategiyasini ishlab chiqish zarur bo'ladi (2-jadval).

1-jadval

Avtomobil transportida tashilgan yuklar hajmi (yillik)¹, mln. t

Klassifikator	2015	2016	2017	2018	2019	2020	2021	2022	2023	2024
O'zbekiston Respublikasi	943,3	1002,8	1013,1	1102,2	1177,7	1238,2	1282	1284,1	1322	1464
Qoraqalpog'iston Respublikasi	20,4	23,7	23,8	26,4	31,1	32,4	33,3	36,7	38,3	40,1
Andijon viloyati	37,8	42,6	40,2	40,8	39,9	42,6	44	49,3	50,9	52
Buxoro viloyati	63,1	65,3	67	73,6	70,1	65,7	64,2	67,7	68,3	71,2
Jizzax viloyati	23	27,8	30,6	34,3	38,5	35,6	34,2	35,5	35,9	37,4
Qashqadaryo viloyati	36	39,7	40,3	41,5	42,8	44,5	42,3	45,9	48,8	51,6
Navoiy viloyati	307,7	308,7	312,2	318,1	320,5	340,5	320,9	379,9	382,9	387,4
Namangan viloyati	16,4	19,6	20,2	27,3	25,4	26,7	29,7	31,6	33,2	35,4
Samarqand viloyati	40	41,9	43,4	47,5	51,1	53,5	55,2	57,3	60,1	63,2
Surxondaryo viloyati	50,8	57,6	58,9	61,1	69,1	72,2	68,3	71,7	82,7	85,4
Sirdaryo viloyati	9,7	11,8	13,6	15,2	17,7	19,2	18,9	19,5	20,1	22,2
Toshkent viloyati	125,5	135,4	128,7	169,4	214,5	228,5	295,5	253,2	261,7	264,2
Farg'ona viloyati	59,3	65,1	63,4	64,2	63,5	59,3	56,9	61,6	63,6	65,2
Xorazm viloyati	30,5	34,1	34,5	36,7	38,5	36,6	35,8	37,8	38,9	41,3
Toshkent shahri	123,1	129,5	136,3	146,1	155	180,9	182,8	136,4	136,6	138,5

“Toshshshaxartransekspeditsiya” MCHJda yuk tashish hajmi, yuk aylanmasi va xizmatlar turlari yil sayin oshib borish tendensiyasiga ega. Faqatgina 2024-yilda, oxirgi besh yilga nisbatan, erishilgan natijalar past ko'rsatkichni tashkil etib, yuk tashish hajmi 142 250 ming tn/km bo'lgan. Jadvaldan ko'rinib turibdiki, avtotransport vositalari soni ham kamayib bormoqda. Agar 2000-yilda korxonada 124 ta avtotransport vositasi faoliyat ko'rsatgan bo'lsa, 2023 va 2024-yillarda ularning soni 110 tani tashkil etgan.

¹ <https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/services-1>

Bunga sabab sifatida sobiq Ittifoq davridan qolgan eskirgan transport vositalarining ro‘yxatdan chiqarilgani ko‘rsatilmoqda. Biroq ularning o‘rnini qoplash bo‘yicha choralar korxonaning moliyaviy holati yaxshi bo‘lmaganligi sababli amalga oshirilmagan. Faqat 2020-yilda 2 ta MAN rusumli yuk mashinasi xarid qilingan, xolos (3-jadval).

2- jadval

“Toshshshaxartransekspeditsiya” MCHJning texnik iqtisodiy ko‘rsatkichlarining dinamikasi¹

Ko‘rsatkichlar	2000	2010	2018	2019	2020	2021	2022	2023	2024
1.Yuk tashuvi tn/km	125280	131210	140510	142422	144120	145321	146110	142101	144250
2.Yuk aylanmasi	11275200	11808900	12645900	12817980	13078890	13078890	13149900	13239096	13088010
3.Avtotransport miqdori	124	118	110	110	112	112	110	110	110
4.Xizmatlar turlar	72	72	76	77	77	78	79	80	81
2.Parkdan foydalanish koeffitsiyenti, %	0,65	0,68	0,71	0,72	0,73	0,73	0,74	0,75	0,76
Avtotransport yurishidan foydalanish koeffitsiyenti, %	0,56	0,57	0,57	0,58	0,59	0,59	0,60	0,61	0,62

Avtotransport parkidan foydalanish koeffitsiyenti 2024-yilda 0,75, ularning yurishidan foydalanish koeffitsiyenti esa 0,62 ni tashkil etgani korxonaning past samaradorlik bilan ishlayotganini ifodalaydi. Korxonadan amalda oshirilayotgan xizmatlar turi 2000-yilda 72 tani tashkil etgan bo‘lsa, 2024-yilga kelib bu ko‘rsatkich 81 taga yetgan. Bu nisbiy o‘shishni ko‘rsatadi, biroq zamonaviy talablarga muvofiq ushbu xizmatlar soni 200 tadan ortiq bo‘lishi lozim.

O‘zbekiston Respublikasida tashilgan yuklar hajmi 2015-yilda 943,5 mln tonnani tashkil qilgan bo‘lsa, 2024-yildagi ma‘lumotlarga ko‘ra, bu ko‘rsatkich 1 464 mln tonnani tashkil qilmoqda. Toshkent shahrida esa tahlil natijalariga ko‘ra, 2015-yilda 123,1 mln tonna yuk tashilgan bo‘lsa, 2024-yildagi ko‘rsatkich 138,5 mln tonnani tashkil etgan.

Avtomobil transporti orqali yuk tashish strategiyasini takomillashtirish — bu xizmat samaradorligini oshirish, xarajatlarni kamaytirish va mijozlar ehtiyojini yanada to‘liq qondirishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar yig‘indisidir. Bizning fikrimizcha, yuk tashish strategiyasini takomillashtirishning asosiy yo‘nalishlari quyidagilar bo‘lishi maqsadga muvofiq:

1. Logistika tizimini optimallashtirish;
2. Raqamlashtirish va avtomatlashtirish;

¹ “Toshshshaxartransekspeditsiya” MCHJ ma‘lumotlari asosida tuzilgan

3. Avtoparklarni modernizatsiya qilish;
4. Kadrlar salohiyatini oshirish;
5. Xavfsizlik va ishonchlikni ta'minlash;
6. Xarajatlarni kamaytirish strategiyasi;
7. Mijozlar bilan munosabatlarni mustahkamlash;
8. Yashil logistika (eko transport) konsepsiyasini joriy etish.

Ushbu yo'nalishlarni to'g'ri tashkil etish orqali yuk tashish tizimini yanada rivojlantirish, yuk tashish tannarxini kamaytirish imkoniyatlarini yaratish hamda shu orqali ishlab chiqaruvchilarning mahsulot tannarxining pasayishiga hissa qo'shish mumkin.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Avtomobil transporti orqali yuk tashish strategiyasini takomillashtirish va uni samarali amalga oshirish bugungi kunda transport-logistika tizimini rivojlantirishning muhim yo'nalishlaridan biridir. Ushbu strategiyaning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi:

- Yuk tashish xizmatining sifati va ishonchliligini oshirishga;
- Transport xarajatlarini kamaytirishga;
- Mijozlarga xizmat ko'rsatish darajasini yaxshilashga;
- Transport vositalaridan foydalanish samaradorligini oshirish va logistika jarayonlarini optimallashtirishga xizmat qiladi.

Strategiyani muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun quyidagilar zarur:

- Zamonaviy IT texnologiyalarni joriy etish;
- Logistika tizimini avtomatlashtirish;
- Malakali kadrlarni jalb qilish;
- Xizmat ko'rsatishda shaffoflik va xavfsizlikni ta'minlash;
- Ekologik jihatdan tejamkor transport vositalaridan foydalanish.

Umuman olganda, avtomobil transportida yuk tashish strategiyasining izchil va tizimli ravishda amalga oshirilishi nafaqat korxonada faoliyatining rentabelligini oshiradi, balki butun transport tizimining raqobatbardoshligini kuchaytiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 11.09.2023-yildagi "“O'zbekiston — 2030” strategiyasi to'g'risida” PF-158-sonli Farmoni. <https://lex.uz/ru/docs/-6600413>
2. Engstrom R. The roads' role in the freight transport system// Transportation Research Procedia. – 2016. – Vol. 14. – P. 1443–1452.
3. Иевлева А.А. Разработка стратегии повышения эффективности работы российских операторов на рынке международных автомобильных перевозок грузов: дис. ... канд. экон. наук. – М., 2010. – 194 с.
4. Николаев. Р.С. Современные тенденции развития грузоперевозок автомобильным транспортом в России: структурные и логистические аспекты. Вестник ПНИПУ. Социально-экономические науки. 2019.

5. Юсупов. А.Э. Автомобилларда юк ташишда самарали транспорт воситасини танлаш. Research and education / issn: 2181-3191 volume 3 | issue 10| 2024.

6. www.stat.uz

7. Toshkent shahri “Transekspeditsiya” AJ materiallari.



Marketing

ilmiy, amaliy va ommabop jurnali

Muharrir: Xakimov Ziyodulla Axmadovich
Ingliz tili muharriri: Tursunov Boburjon Ortiqmirzayevich
Rus tili muharriri: Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li
Musahhah: Karimova Shirin Zoxid qizi
Sahifalovchi va dizaynerlar: Sadikov Shoxrux Shuxratovich
Abidjonov Nodirbek Odijon o'g'li

2025-yil, aprel, 4-son

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqola, ommabop maqola, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta: info@marketingjournal.uz
Bot: [@marketinjournalbot](https://t.me/@marketinjournalbot)
Tel.: +998977838464, +998939266610

Jurnalning rasmiy sayti: <https://marketingjournal.uz>

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali 2024-yil 15-martdan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669517** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan. **Litsenziya raqami: №240874**



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnalining xalqaro darajasi: **9710**. GOCT 7.56-2002 " Seriyali nashrlarning xalqaro standart raqamlanishi" davlatlataro standartlari talablari. **Berilgan ISSN tartib raqami: 3060-4621**